SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILIYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjabova Latofat Sardorovna	
MILLIIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI.....	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLUKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	



ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Uzaqov Jamshid Norboyevich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, PhD.

ORCID: 0009-0002-6420-9076

E-mail: jamshiduzokov0660@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – ziyorat turizmi orqali hududiy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratish, bandlikni oshirish, kichik biznes va xizmatlar sohasini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Tahlil jarayonida turizmning multiplikativ samarasi, infratuzilmaga ta'siri, mahalliy byudjet daromadlariga qo'shayotgan hissasi hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish omillari o'rganilgan. Mintaqaviy xususiy sektor subyektlariga ziyoratgohlarni rivojlantirish uchun qulay investitsiyaviy muhit yaratish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish muhim omil sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: xususiy sektor, ziyoratgohlarni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyaviy muhit, soliq imtiyozlari, kredit qo'llab-quvvatlash, infratuzilma modernizatsiyasi, tadbirkorlik faolligi, hududiy bandlik, mintaqaviy daromadlar.

Abstract. The article analyzes the impact of pilgrimage tourism on regional economic development. The purpose of the study is to identify mechanisms for creating added value in the regional economy through pilgrimage tourism, increasing employment, and developing small businesses and the service sector. The analysis examines the multiplicative effect of tourism, its impact on infrastructure, its contribution to local budget revenues, and factors enhancing investment attractiveness. The importance of creating a favorable investment environment for private sector entities in the development of pilgrimage sites and expanding public-private partnership mechanisms is substantiated.

Key words: private sector, development of pilgrimage sites, public-private partnership, investment environment, tax incentives, credit support, infrastructure modernization, entrepreneurial activity, regional employment, regional income.

Аннотация. В статье анализируется влияние паломнического туризма на региональное экономическое развитие. Цель исследования заключается в выявлении механизмов создания добавленной стоимости в региональной экономике за счёт паломнического туризма, увеличения занятости, развития малого бизнеса и сферы услуг. В процессе анализа изучены мультипликативный эффект туризма, его влияние на инфраструктуру, вклад в доходы местных бюджетов, а также факторы повышения инвестиционной привлекательности. Обоснована важность создания благоприятной инвестиционной среды для субъектов частного сектора в развитии объектов паломничества и расширения механизмов государственно-частного партнёрства.

Ключевые слова: частный сектор, развитие объектов паломничества, государственно-частное партнёрство, инвестиционная среда, налоговые льготы, кредитная поддержка, модернизация инфраструктуры, предпринимательская активность, региональная занятость, региональные доходы.

KIRISH

Ziyorat turizmi — dunyodagi eng qadimiy va keng tarqalgan turizm yo'nalishlaridan biri bo'lib, yil sayin millionlab insonlarning ruhiy, madaniy va tarixiy qadamjolarini ziyorat qilishiga asoslanadi.



Jahon miqyosida ziyorat turizmi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa tarixiy va diniy merosga boy Osiyo mamlakatlarida ushbu yo'nalish jadal rivojlanmoqda. "Global Muslim Travel Index (GMTI)" ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda global miqyosda musulmon sayyohlar soni taxminan 140 million nafarni tashkil etgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 110 million atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda musulmon sayyohlar soni yana 140 millionga yetgani qayd etilgan. Musulmon sayyohlar tomonidan sayohatga sarflangan xarajatlar hajmi 2023-yilda 216,9 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2028-yilga borib ushbu ko'rsatkich 384,1 milliard AQSh dollarigacha oshishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, global musulmon sayyohlar soni 2028-yilga kelib 230 million nafarga yetishi kutilmoqda [1].

O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha resurslarga ega. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan mamlakat qulay tabiiy-iqlim sharoitlari, boy tarixiy va madaniy merosi, shuningdek ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyati bilan ajralib turadi. Shu bois O'zbekiston ziyorat turizmi salohiyati yuqori bo'lgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. 2019-yilda imzolangan Buxoro deklaratsiyasiga muvofiq, O'zbekiston jahon ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida tan olingan. Bundan tashqari, mamlakat Global Muslim Travel Index reytingida 153 davlat orasida 17-o'rinni egallagan [2].

2020–2025-yillar davomida O'zbekistonda ziyorat obyektlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Natijada muqaddas maskanlarning turistik salohiyati yildan-yilga ortib bormoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, boy madaniy-tarixiy merosi, mehmondo'st aholisi, milliy taomlari va betakror tabiati bilan turizm sohasini kengaytirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Hukumat tomonidan ziyorat turizmi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim va yuqori o'sish salohiyatiga ega yo'nalish sifatida baholanmoqda. So'nggi yillarda turizmni rivojlantirish maqsadida madaniy va tarixiy meros obyektlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh hamda Yaqin Sharq mamlakatlari bilan aviaqatnovlar sonini ko'paytirish, malakali gidlar tayyorlash, ziyoratgohlarga olib boruvchi yo'llar va infratuzilmani yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Mamlakat hududida 1 200 dan ortiq ziyoratgoh mavjud bo'lib, ular yiliga 1 million nafargacha ziyoratchini qabul qilish imkoniyatiga ega. Shuningdek, O'zbekiston 2025-yilda Global Muslim Travel Index reytingida 153 mamlakat orasida 17-o'rinni egallagan. 2024-yilda esa Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan Xiva shahri Islom dunyosining turizm poytaxti deb e'lon qilingan [3].

Ziyorat turizmi nafaqat diniy-ma'naviy ehtiyojlarni qondiruvchi yo'nalish, balki mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim iqtisodiy omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Uning multiplikativ ta'siri hududlarda savdo, transport, mehmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishiga bevosita turtki beradi. Ziyoratchilar oqimining ortishi infratuzilmani modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirib, investitsion faollikni kuchaytiradi va yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi. Natijada mahalliy byudjet daromadlari kengayadi, hududiy iqtisodiyot diversifikatsiyalanadi hamda xususiy sektor subyektlarining ishtiroki oshadi.

Mazkur tadqiqot ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini ilmiy asosda baholash, uning iqtisodiy samaradorlik mexanizmlarini aniqlash, shuningdek xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik doirasida rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Shu orqali ziyorat turizmini barqaror hududiy taraqqiyotning strategik omillaridan biri sifatida asoslash maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada jahon iqtisodiyotida ziyorat turizmining ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan xorijiy ilmiy jurnallar, maqolalar, ilmiy to'plamlar hamda nufuzli xalqaro tashkilotlarning yillik hisobotlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, Global Muslim Travel Index [4], Global Economic Impact of Muslim Tourism and Future Growth Projection [5], State of the Global Islamic Economy Report [6] materiallari, shuningdek mamlakatimiz iqtisodchi olimlari I.S. Tuxliyev [7], G'.H. Qudratov [8], M.K. Pardayev [9] va B. Safarov [10]larning ilmiy maqolalari tadqiqotning nazariy va metodologik asosini tashkil etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash uchun tizimli yondashuv qo'llanildi. Tahlil jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar asosida dinamik va taqqoslama tahlil usullari qo'llanilib, ziyoratchilar oqimi, xizmatlar hajmi, bandlik ko'rsatkichlari va hududiy daromadlar o'zgarishi o'rganildi. Iqtisodiy-mantiqiy tahlil yordamida turizmning qo'shimcha qiymat yaratish mexanizmlari asoslandi. Shuningdek, ziyorat turizmining infratuzilma, xususiy sektor va mahalliy byudjet daromadlari bilan o'zaro bog'liqligi tizimli ravishda baholanib, mavjud tendensiyalar asosida uning kelgusidagi iqtisodiy ta'siri prognoz qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoda ziyorat turizmining ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda va bu jarayon uning muayyan mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirining kuchayishi bilan bevosita bog'liq. Ziyorat turizmi sohasi boshlang'ich investitsiyalar hajmining nisbatan kichikligi, sayohat xizmatlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi, yuqori rentabellik darajasi hamda investitsiya mablag'larining tez qaytishi bilan tadbirkorlar uchun jozibador hisoblanadi.

Ziyorat turizmi infratuzilmasi ziyorat turizmini rivojlantirish va mavjud resurslardan samarali foydalanishning muhim asosi hisoblanadi. Uning ahamiyati turizm xizmatlarini ishlab chiqish va taqsimlash samaradorligini oshirishda, ayrim hollarda esa uzoq hududlarda ham turizm xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, globallashtirish jarayonlari va jahon ziyorat turizmi bozoridagi kuchayib borayotgan raqobat sharoitida turizm infratuzilmasi hamda xizmatlar sifati va darajasi har doim ham zamon talablari bilan to'liq mos kelavermaydi.

Ziyorat turizmi infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarurati mamlakatimizda, jumladan Qashqadaryo viloyatida ham kelgusida ziyoratchilar oqimining ortishini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ziyorat turizmi infratuzilmalari, xususan mehmonxona, kemping, motel, tematik park, muzey, galereya va boshqa turistlarni qabul qilish hamda joylashtirish obyektlari sonini ko'paytirishni taqozo etadi. Shu maqsadda Qashqadaryo viloyati va uning turistik resurslarga ega hududlarida xatlov o'tkazish orqali bo'sh turgan yer maydonlarini aniqlash va ularni zaxira hududlar sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Aniqlangan bo'sh yer maydonlari va zaxira hududlarda ziyorat turizmi infratuzilma obyektlarini barpo etish bo'yicha yangi joylarning dizayn-loyihalarini jahon standartlariga mos ravishda ishlab chiqish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Ziyoratga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoni barcha bosqichlarda marosim amaliyotiga, shuningdek turli xalqlarning ijtimoiy-madaniy an'analariga tayanadi. Turli dinlarda ziyorat tashqi jihatdan ma'lum o'xshashliklarga ega bo'lib, bu holat uning tuzilma nuqtayi nazaridan deyarli barcha hollarda bir necha bosqichda amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Mazkur bosqichlar quyidagilardan iborat:

- ziyoratga tayyorgarlik ko'rish, bunda iqtisodiy jihatdan xizmatlar va savdo bozorida dastlabki talab shakllanadi;
- muqaddas joyga yo'l olish, bu bosqich transport, ovqatlanish va yo'lbo'yi xizmatlariga bo'lgan talabni oshirish orqali xizmatlar bozorida iqtisodiy faollikni kuchaytiradi;
- ziyoratgoh atrofida muqaddas marosimlarni ado etish, bu jarayon ziyoratgoh hududida savdo, xizmat ko'rsatish hamda xayriya mablag'lari aylanishi orqali mahalliy iqtisodiy faollikni oshiradi;
- ruhiy ichki o'zgarish va ma'naviy yangilanish;
- vatanga qaytish, bunda safar davomida shakllangan tajriba va amalga oshirilgan sarf-xarajatlar natijasida mahalliy iste'mol, sovg'a-salom va xizmatlar orqali iqtisodiy aylanish davom etadi.



1-rasm. Ziyorat jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy konseptual modeli¹

1 Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi



Mintaqada ziyorat turizmi sohasida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish natijasida band aholiga mehnat haqi to'lanishi hamda davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning tushishi orqali milliy daromad yaratiladi. Ziyorat turizmi sohasining bevosita va bilvosita ta'sirini samarali rivojlantirishga erishilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- mintaqaning yalpi hududiy daromadi mazkur soha hisobiga oshadi;
- mintaq byudjeti soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumining ko'payishi hisobiga mustahkamlanadi;
- mintaq aholisining bandligi ta'minlanib, yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- xorijiy kapitalning sohaga jalb etilishi hamda valyuta tushumlarining ortishi ta'minlanadi;
- mintaqada ziyorat turizmini rivojlantirish bilan bir qatorda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi;
- ziyorat turizmi infratuzilmasi va industriyasining izchil rivojlanishiga erishiladi;
- mahalliy va xorijiy ziyoratchilar uchun dam olish va xizmat ko'rsatish tuzilmalari takomillashtiriladi.

1-jadval. Butunjahon turizm va sayohat kengashi (WTTC) metodologiyasiga ko'ra, ziyorat turizmi sektori iqtisodiyotga qo'shadigan hissasining tarkibiy xususiyatlari²

Bevosita hissa	Mehmondo'stlik xizmatlari: yashash, ovqatlanish, transport, diqqatga sazovor joylar va ko'ngilochar joylar
	Tarmoqlar: mehmonxonalar va restoranlar, transport, turagentliklar, chakana savdo, madaniyat, sport, rekreatsiya
	Daromad manbalari: rezidentlarning turizm va safar xarajatlari, turizm xizmatlari eksporti (nerezidentlarning xarajatlari, rezidentlarning ish safari xarajatlari, individual davlat xarajatlari)
Bilvosita hissa	Turizm sohasiga investitsiyalar: jamoaviy davlat xarajatlari, ichki ta'minot va xaridlar
Industriya-langan hissa	Ixtisoslashgan turizm korxonalarining moddiy-texnika ta'minoti
	Turizmga band bo'lgan xodimlar hayot faoliyati, tovarlari va xizmatlari (oziq-ovqat, ichimliklar, kiyim-bosh, turar-joy xizmatlari va xo'jalik tovarlari)

Mintaqada ziyorat turizmini rivojlantirish orqali mintaq iqtisodiyotini yuksaltirishga, aholining iqtisodiy-ijtimoiy hayotini yaxshilashga, ularning yashash darajasi va hayot sifati oshishiga erishiladi. Biroq ziyorat turizmi ta'sirining eng muhim natijaviy ko'rsatkichlari uning yalpi hududiy mahsulot (YHM) va bandlikka qo'shgan hissasi hisoblanadi.

Ziyorat turizmining iqtisodiy funksiyasi, avvalo, turizm sohasining yalpi hududiy mahsulot yaratishga qo'shayotgan hissasida namoyon bo'ladi. Ziyorat turizmining YHMni shakllantirishdagi ulushi ziyorat turizmi faoliyati hisobiga iqtisodiyotda yaratilayotgan qo'shimcha qiymat miqdori bilan belgilanadi.

2-rasm. Mamlakat va uning mintaqalarida ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi.

Ziyorat turizmi infratuzilmasi obyektlarini barpo etish va ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda xususiy biznes subyektlarining sa'y-harakatlarini birlashtirishning eng istiqbolli yo'llaridan biri davlat-xususiy sheriklik hisoblanadi. Shu bois ziyorat turizmi salohiyatini rivojlantirish maqsadlariga erishishda loyihalarni amalga oshirish vositalaridan biri sifatida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmini joriy etish taklif etiladi.

Aynan ziyorat turizmi sohasida ushbu mexanizmdan foydalanish innovatsion siyosat maqsadlarini amalga oshirish uchun qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish, shuningdek mintaq iqtisodiy tizimining barcha darajalarida davlat va xususiy biznes o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ziyorat turizmi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri bo'lib, u hududlarda qo'shimcha qiymat yaratish, xizmatlar sohasini kengaytirish, xususiy sektor faolligini oshirish hamda bandlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ziyoratchilar oqimining ortishi infratuzilma modernizatsiyasini jadallashtiradi, mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytiradi hamda hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu bois, ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- Qashqadaryo viloyatining chekka hamda tabiiy-rekreatsion salohiyati yuqori bo'lgan hududlari — Dehqonobod, Yakkabog', Qamashi, Mirishkor va boshqa tumanlarning tog'li hamda cho'l zonallari — ekoturizmini

2 Uzaqov J.N ilmiy tadqiqotlari natijasida ishlab chigilgan



rivojlantirish uchun qulay tabiiy-landshaft sharoitlarga ega. Xususan, Dehqonobod tumanidagi “Boshchorbog”, Kitob tumanidagi “G’elon”, Mirishkor tumanidagi “Pomuq” qishloqlari hamda mintaqaning boshqa manzillarida noyob ekotizim, tabiiy relyef, bioxilma-xillik va etnomadaniy muhit mavjud. Shu bilan birga, ushbu hududlarda mahalliy aholi tomonidan ziyorat qilinadigan, biroq turizm infratuzilmasiga to’liq kiritilmagan, inshoot yoki me’moriy majmua sifatida shakllantirilmagan muqaddas maskanlar ham uchraydi. Mazkur sharoitdan kelib chiqib, xorijiy turistlar oqimini diversifikatsiya qilish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirish maqsadida “eko–safari–ziyosat turizmini integratsiyalash modeli”ni ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu model ekoturizm (tabiiy resurslar va landshaftdan barqaror foydalanish), safari elementlari (sarguzasht va ekstremal yo’nalishlar) hamda ziyorat turizmi (ma’naviy-madaniy meros obyektlari)ni yagona turistik mahsulot doirasida uyg’unlashtirishga qaratilgan.

- Qashqadaryo mintaqasining ayrim tuman va shaharlarida ziyorat turizmi salohiyatidan to’liq foydalanish ziyorat turizmi infratuzilmasining, shuningdek institutsional muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan cheklanib qolmoqda. Jumladan, salohiyati yuqori bo’lgan hududlarda ham investitsiyaviy faollikning pastligi ushbu sohaning rivojlanishiga to’sqinlik qilmoqda.

- Ziyorat turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikni (DXSh) joriy etish ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish doirasida manfaatlarni muvofiqlashtirish, davlat va xususiy sektor o’rtasidagi hamkorlikni ta’minlashning aniq tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur asoslar shakllantirilgandan so’ng turizm sohasida davlat-xususiy sheriklikni keng joriy etish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Mazkur integratsiyalashgan yondashuv asosida hududlarda kichik biznes subyektlari, oilaviy mehmon uylari, gidlik xizmatlari hamda mahalliy hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi. Natijada tabiiy va ma’naviy resurslardan oqilona foydalanish asosida chekka hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi oshadi, yangi ish o’rinlari yaratiladi hamda Qashqadaryo viloyatining turistik brendi shakllanadi. Bu esa ziyorat turizmining mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Asian Development Bank – SEADS. Indonesia and Malaysia share top spot in Global Muslim Travel Index 2023. Manzil: https://seads.adb.org/news/indonesia-and-malaysia-share-top-spot-global-muslim-travel-index-2023?utm_source
2. APTA (Asian/Pacific Tourism Association). News – Uzbekistan travel and tourism developments. Manzil: https://www.apta.uz/en/news/47?utm_source
3. U.S. Department of Commerce – International Trade Administration. Country Commercial Guide: Uzbekistan – Travel and Tourism. Manzil: https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-travel-and-tourism?utm_source
4. CrescentRating. Global Muslim Travel Index (GMTI). Manzil: <https://www.crescentrating.com/global-muslim-travel-index-gmti.html>
5. Salam Standard. The Global Economic Impact of Muslim Tourism 2017 to 2020. PDF hisobot. Manzil: <https://www.salamstandard.org/The-Global-Economic-Impact-of-Muslim-Tourism-2017-to-2020.pdf>
6. Tuxliyev, I.S., Hayitboyev, R., Safarov, B.Sh., Tursunova, G.R. Turizm asoslari. Toshkent: 2014. B. 3–4.
7. Tuxliyev, I., Qudratov, G’X., Pardayev, M.Q. Turizmni rejalashtirish. Toshkent: 2010. B. 12–16.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>